



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 150 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 7-aprelda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Цифровизация социально-трудовых отношений: вызовы и перспективы для работников	18
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan soliq to'lovchi yuridik shaxslarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish masalalari.....	26
To'xtaboyev Nuriddin Isomiddin o'g'li	
Ecotourism in Protected Areas: A Literature Review.....	32
Ismoilova Maftuna Mamat qizi	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari.....	38
Primova Shaxlo Jumayevna	
Statistik baholash va ekonometrik modellashtirish orqali biznes rivojlanish tendensiyalarini samaradorligini baholash.....	43
Xabibullayev Ibrohim, Saidova Marhabo Xabibullo qizi	
Tijorat banklarida xususiy kapital hisobi va auditini takomillashtirish	52
Qodirova Zilola Maxmud qizi	
Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligining ilg'or xorij tajribasi.....	57
Erkayev Nodir Xudayberdiyevich	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etish holati va asosiy yo'nalishlari.....	71
Madraximova Zulfiya Nurmatovna, Ishankulova Komila Kurbanovna, Ortiqboeva Aziza Xolmurza qizi, Omonkulova Ro'zigul Akmaljon qizi	
Challenges and opportunities in implementing green economy indicators in uzbekistan's industrial sector under the fourth industrial revolution.....	76
Shodmonov Ruslan Golib ugli, Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich	
Rivojlangan mamlakatlarga ishchi kuchi oqimi va O'zbekiston mehnat bozoridagi o'zgarishlar.....	89
Tilabova Kumush Farhod qizi	
Mamlakatda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	95
Yuldashboyev Azizulloh Bunyodbek o'g'li, Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich	
"Ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni samarali rejalashtirish va boshqarish"	101
Bauyetdinov M.J., Medetbayeva D.T.	
Enhancing utilization and minimization of renewable energy systems in uzbekistan	105
Toyirova Hamida Umedovna	
Tijorat banklari daromadini oshirishda aholining savodxonligi va xulq atvorining roli	114
Shakhlo Davirova	
2020–2024-yillarda o'zbekistondagi iqtisodiy o'sish dinamikasi	120
Akbarov Nodir, Ibodullayev Navro'zbek	
O'zbekistonda xalqaro moliyaviy institutlarning yashil moliyalashtirish jarayonidagi roli va strategik yo'nalishlari	125
Gulmira Axmadjonova Xabibulla qizi	
Sug'urta tizimiga raqamli texnologiyalarning ta'siri	133
Uzaqova Kamola Bexzodovna, Yahyoyev Bahriddinxon Bahroil o'g'li	
Improving payment services practices in commercial banks: strategies for efficiency and security.....	138
Mamayusuf Abdusamatov	
Jahon moliya tizimi: asosiy tendensiyalar va rivojlanishning innovasion yo'nalishlari	143
Ataniyazov Jasurbek Xamidovich	



JAHON MOLIYA TIZIMI: ASOSIY TENDENSIYALAR VA RIVOJLANISHNING INNOVASION YO'NALISHLARI



Ataniyazov Jasurbek Xamidovich

“Xalqaro moliya” kafedrası
mudiri, i.f.d., professor

Annotatsiya: maqolada jahon moliya tizimi rivojlanishining asosiy tendensiyalari, global moliya tizimi barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar, jahon moliya tizimining rivojlanish mexanizmini tavsiflovchi o'zgarishlar hamda jahon moliya tizimini rivojlantirishning innovasion yo'nalishlari yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotlar asosida global moliya tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari, zamonaviy sharoitda moliya tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlash jarayonlariga samarali ta'sir ko'rsatishda global institutlarni isloh qilish masalalari tadqiq etilgan holda tegishli ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro moliya tizimi, innovasiya, globallashuv, raqamli pul, Fintech, integrasiya, inflyasiya.

Abstract: the article describes the main trends in the development of the global financial system, considers the factors influencing the stability of the global financial system and its characteristic changes, describes the mechanism for the development of the global financial system, and also provides innovative directions for the development of the global financial system. In particular, on the basis of research, relevant scientific conclusions have been formed through the study of priority areas for reforming the global financial system, issues of reforming global institutions in order to effectively influence the processes of ensuring the stable development of the global financial system in modern conditions.

Key words: international financial system, innovation, globalization, digital money, Fintech, integration, inflation.

Аннотация: в статье описаны основные тенденции развития мировой финансовой системы, рассмотрены факторы влияющие на устойчивость мировой финансовой системы и характерные её изменения, описан механизм развития мировой финансовой системы, а также приведены инновационные направления развития мировой финансовой системы. В том числе на основе исследований сформированы соответствующие научные выводы, через изучение приоритетных направлений реформирования мировой финансовой системы, вопросы реформирования глобальных институтов в целях эффективного влияния на процессы обеспечения стабильного развития мировой финансовой системы в современных условиях.

Ключевые слова: международная финансовая система, инновация, глобализация, цифровые деньги, финтех, интеграция, инфляция.

KIRISH

Jahon moliya tizimi rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari mintaqaviy va mahalliy moliya bozorlarining o'zaro aloqadorligi hamda integrasiyalashuvining kuchayishi, ularning erkinlashuvi va moliyaviy munosabatlarning faollashuvi bilan tavsiflanadi, bu esa yagona, barqaror global moliya tizimining shakllanishiga olib keladi [3]. Shu bilan birga, jahon moliya tizimining rivojlanishidagi globallashuv tomon transformasion siljishlar uning beqarorligi kuchayishini, o'rta va qisqa muddatli istiqbolda noaniqlikni, milliy va mintaqaviy moliya bozorlari zaifligining oshishini, shuningdek xalqaro moliya bozorlarida risklilik darajasining ortishini namoyon etmoqda.

Hozirgi kunda jahon moliyaviy muhitiga ta'sir ko'rsatuvchi va undagi munosabatlarni o'zgartiruvchi asosiy omillardan biri moliyaviy globallashuv jarayoni hisoblanadi. Shu boisdan globallashuv sharoitida xalqaro moliya tizimi barqarorligini ta'minlash hamda xalqaro savdo-iqtisodiy, investision munosabatlarning rivojlanishi uchun uchun zaruriy shart-sharoit yaratish dolzarb masalalardan hisoblanadi.



Jahon iqtisodiyotining muhim va ayni paytda eng murakkab sohalaridan biri bu turli davlatlar va davlatlararo ittifoqlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni mustahkamlash sharoitida rivojlanayotgan hamda alohida mamlakatlarning milliy iqtisodiyoti va jahon iqtisodiyoti rivojlanishidagi zamonaviy muammolarning jiddiyligini aks ettiruvchi global moliya tizimidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Global beqarorlik sharoitida jahon moliya tizimini rivojlantirish masalalari P.Krugman, M.Obstfeld, M.Melitz, M.Eskindarov, E.Zvonova, D.Goldblatt, D.Xeld, R.I.Xasbulatov, S.R.Moiseev va L.N.Krasavina va boshqalarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. Ko'pgina tadqiqotlar global moliyaviy shoklarni oldini olish masalalariga bag'ishlangan, ammo xalqaro moliya tizimida davriy ravishda yuzaga keluvchi inqiroz hodisalarining, shu jumladan tashqi qarz inqirozlarining paydo bo'lishi va tarqalishi muammolari dolzarbligicha qolmoqda.

P.Krugman, M.Obstfeld, M.Melitz kabi olimlar xalqaro moliya tizimi rivojlanishining asosiy tendensiyalari va uning barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar, xalqaro moliya tizimini rivojlantirishning innovasion yo'nalishlari borasida ilmiy izlanishlar olib borgan[10].

M.Eskindarov va E.Zvonova, S.R.Moiseevlar global moliya tizimining rivojlanish xususiyatlarini, yuzaga kelgan inqirozlarning asosiy sabablarini, xalqaro moliyaviy munosabatlarni rivojlantirishning asosiy shart-sharoitlarini tadqiq etgan. Shuningdek, global moliya tizimi ishtirokchilari o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni rivojlantirish va xalqaro moliya bozori bilan bog'liq risklarni oldini olish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqqan[7;11].

D.Goldblatt, D.Xeld, R.I.Xasbulatov va L.N.Krasavinalarning tadqiqotlari xalqaro moliya tizimidagi institusional o'zgarishlarga mos bo'lgan yondoshuvlar asosida jahon iqtisodiyotini rivojlantirish, xalqaro moliya tizimini tuzilmaviy jihatdan isloh etishning ustuvor yo'nalishlarini o'rganishga bag'ishlangan [5; 12; 13].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, xalqaro moliya tizimi tuzilmaviy jihatdan transmilliy korporasiyalar va banklar, moliyaviy konglomeratlar, xalqaro moliya-kredit institutlari, alohida mamlakatlarning markaziy banklari, pensiya, investisiya fondlari va sug'urta kompaniyalarini o'z ichiga olgan institusional investorlar, yirik moliyaviy markazlarni qamrab oladi. Uning instrumentlariga depozitlar, xorijiy mamlakatlardan xarid qilingan mahsulot va xizmatlar, shu jumladan aksiyalar uchun xalqaro pul o'tkazmalari, olingan va berilgan kreditlar, veksel, obligasiyalar, shuningdek, hosila moliyaviy vositalar kabilarni kiritish mumkin.

Jahon moliya tizimining rivojlanish mexanizmi, birinchi navbatda, uning faoliyatini tavsiflovchi o'zgarishlar ta'sirida shakllanadi. Ular qatorida quyidagilarni ajratib ko'rsatish lozim:

birinchidan, jahon iqtisodiyotining globallashuvi, bu bir vaqtning o'zida bir nechta rivojlanayotgan bozorlarda faoliyat yurituvchi va investisiya kiritilgan mamlakatlarda moliyaviy vaziyatni beqarorlashtirishga qodir bo'lgan xalqaro investorlar yangi sinfining paydo bo'lishiga imkon yaratadi; ikkinchidan, xalqaro moliya bozoring yuqori darajadagi rivojlanishi va uni tartibga solish bo'yicha tegishli institusional tuzilma o'rtasidagi nomuvofiqlik; uchinchidan, keyingi yillarda moliyaviy va valyuta inqirozlarining takrorlanishi va ular ta'sirining kuchayishi;

to'rtinchidan, rivojlanayotgan mamlakatlarda moliya bozorlarini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini pasaytiradigan offshor moliya markazlarining kengayishi [4];

beshinchidan, xalqaro institutlarning rivojlanayotgan mamlakatlarga moliyaviy yordam ko'rsatish imkoniyatlarining cheklanganligi;

oltinchidan, XVF va boshqa xalqaro institutlarning moliyalashtirish dasturlarini amalga oshirish natijasida kelib chiqadigan manfaatlar to'qnashuvining kuchayishi, bu holat moliyaviy inqiroz davrida xususiy investorlar va qarz oluvchilarning faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi;


ettinchidan, investisiya institutlari, moliyaviy vositalar miqdorining hamda moliya bozorlarida, ayniqsa, qarz bozorida amalga oshirilayotgan bitimlar hajmining ko'payishi, bu esa inqirozli vaziyatlarni bartaraf etishda investorlarning o'zaro hamkorligini murakkablashtiradi.

Jahon moliya tizimi shakllanishi va faoliyatining zamonaviy xususiyatlari, uni transformasiyalash va jahon iqtisodiy makonidagi o'zgarishlarga moslashish zarurati rivojlanishning yangi innovasion yondashuvlarini izlashni talab qiladi. Bu, birinchi navbatda, jahon moliya tizimining asosiy tarkibiy qismlaridagi mavjud tendensiyalar va ularga moslashish yo'nalishlarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Innovasion siljishlarning asosiy shart-sharoitlari sifatida jahon moliya tizimiga ishonchning pastligi, xavfsiz aktivlarni izlash uchun kapitalning boshqa mamlakatlarga, xususan, AQSh va Yaponiyaga chiqib ketishi hisobga




olinishi kerak. Garchi bu oqimlar davlat qarzlarini moliyalashtirish xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirgan bo'lsa-da, har ikki mamlakatda ham jiddiy fiskal muammolar saqlanib qolmoqda (1-rasm).



1- rasm. Ayrim xorijiy mamlakatlarda umumiy davlat qarzining YaIMga nisbatan ulushi [14].

AQSh, Buyuk Britaniya, Gretsiya, Fransiya, Italiya, Yaponiya, Singapur, Portugaliya, Ispaniya, Belgiya, Kanada kabi qator mamlakatlarda umumiy davlat qarzining hajmi yalpi ichki muhsulot hajmidan ham ortib ketgan. Shu boisdan ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi o'rta muddatli istiqbolda tashvish uyg'otadigan asosiy omil qarzning iqtisodiy jihatdan beqaror dinamikasidir. So'nggi yillarda Fransiya, Italiya, Yaponiya, Singapur, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda umumiy davlat qarzining YaIMdagi ulushi o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Aksariyat mamlakatlarda davlat qarzlarini samarali boshqarish borasida ta'sirchan chora-tadbirlarning qo'llanilishi tufayli qarz hajmini kamaytirishga erishilmoqda.

Bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan mamlakatlar shu paytgacha global shoklarni muvaffaqiyatli ravishda oldini olishdi, ammo o'sish sur'atlarining pasayishini bartaraf etishda kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarga qarshi ehtiyot choralarini qo'llash lozim bo'ladi, bu esa ularni ichki moliyaviy barqarorlik uchun yanada kuchaytirishi mumkin (2-rasm).



2- rasm. Jahon YaIM hajmining o'zgarish dinamikasi (foizda)[14].

Mazkur 2-rasm ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, jahon YaIM hajmi 2020 yildagi COVID-19 pandemiyasi sharoitida qo'llanilgan cheklovchi choralar fonida oldingi yilga nisbatan 2,8 foiz pasaydi, bu 2009 yildagi



(-1,7 foiz) inqirozdan keyingi eng keskin pasayish hisoblanadi. 2021 yilda dunyo mamlakatlari tomonidan iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash borasidagi chora-tadbirlarning faollashtirilishi natijasida jahon YaIM hajmining 6,3 foiz ijobiy o'sishiga erishildi. 2022-2024 yillarda esa global iqtisodiyotda yuz bergan makroiqtisodiy o'zgarishlar, xalqaro moliya bozorlaridagi tebranishlar, moliyaviy-iqtisodiy cheklovlarining kengayishi va jahon bozori kon'yunkturasidagi beqarorlik holati kabi omillarning ta'siri ostida jahon YaIM hajmi o'sish sur'atining 2021 yildagi ko'rsatkichga nisbatan sezilarli darajada kamaygan. Iqtisodiy o'sish sur'atlarining sekinlashishi bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlarga qaraganda rivojlangan mamlakatlarda ko'proq namoyon bo'ldi.

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar ichida AQShdagi o'sish sur'ati barqaror iste'mol va investisiyalar tufayli kutilganidan oshdi, evro hududida esa iqtisodiy faollik prognozga nisbatan pastroqni tashkil etdi. Ko'pgina bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan mamlakatlar o'rtacha barqarorlikni ko'rsatdi va o'sish sur'atlari prognozga nisbatan oshdi, faqatgina ko'chmas mulk sohasidagi inqiroz va iqtisodiyotga bo'lgan ishonchning pasayishi bilan bog'liq salbiy omillar ta'siriga uchragan Xitoy iqtisodiyoti bundan mustasno.

Jahon iqtisodiyotidagi vaziyatga uchta global omil ta'sir qiladi. Birinchidan, xizmatlar sohasida iqtisodiy faollik deyarli to'liq tiklandi. 2022-2023 yillarda xizmatlarga bo'lgan kuchli talab iqtisodiyoti xizmat ko'rsatishga bog'liq bo'lgan mamlakatlarda ijobiy rivojlanish sur'atlari qayd etilishiga sabab bo'ldi. Ikkinchidan, iqtisodiy o'sish sur'atlarining sekinlashishi qisman inflyasiyani pasaytirish uchun zarur bo'lgan pul-kredit siyosati ta'sirining kamayishi bilan bog'liq bo'ldi. Uchinchidan, inflyasiya dinamikasi va iqtisodiy faollikka jahon bozorlarida asosiy tovarlar narxining keskin o'zgarishi jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

Oxirgi besh yil ichida yuz bergan tendensiyalar va erishilgan ba'zi yutuqlarga qaramay, moliyaviy tizimlar ko'zlangan ko'rsatkichlarga erishishga unchalik yaqinlashmadi. Hozirgacha moliyaviy globallashtirishdan jiddiy og'ishlar kuzatilmagan bo'lsa-da, moliya tizimidagi kutilmagan inqirozli holatlar sababli mamlakatlar salbiy transchegaraviy ta'sirlarga nisbatan zaifligicha qolmoqda.

Hozirda amalga oshirilayotgan islohotlar pirovard natijada bank tizimining ishonchlilik darajasini oshirishga olib kelishiga qaramasdan, bu borada alohida e'tibor talab qiladigan qator masalalar, xususan, juda yirik tashkilotlardagi muammolarni hal qilish tadbirkorlik faoliyatini to'g'ridan-to'g'ri cheklashning afzallik va kamchiliklarini aniqlash; tizimli risklarni yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan bank tizimining segmentlariga ko'proq e'tibor qaratish; yirik tashkilotlar, ayniqsa, xalqaro miqyosda faoliyat yuritayotgan tashkilotlarni tiklash va sog'lomlashtirish rejalarini amalga oshirishda muvaffaqiyatlarga erishish. Bundan tashqari, yuqori sifatli kapital va likvid aktivlardan tashkil topgan moliyaviy buferlar odatda iqtisodiy ko'rsatkichlar o'sishini qo'llab-quvvatlaydi, shuning uchun inqiroz davrida salbiy tarqalishlarni cheklab, transchegaraviy faoliyatning afzalliklaridan foydalanish uchun global bank munosabatlarini samarali boshqarish kerak.

Belgilangan vazifalarni hal qilishda quyidagi vositalar ustuvor hisoblanadi. Birinchidan, moliyaviy xizmatlar va bank operatsiyalarini unifikatsiyalash hisobiga xalqaro moliyaviy integratsiyani faollashtirish; bojxona tartib-taomillarini liberallashtirish; muvofiqlashtirish tizimini xalqaro moliya-kredit institutlari, to'lov vositalarining elektron tizimi orqali unifikatsiyalash, yagona jahon pullari bilan global valyuta tizimiga o'tish. Shu nuqtai nazardan, kapital harakati bo'yicha qonunchilik cheklovlari bekor qilinganligini ta'kidlash kerak.

Rivojlangan mamlakatlarning moliya bozorlari jahon moliya tizimiga birlashib, kapitalning ortib borayotgan hajmini nafaqat uning iqtisodiyotiga, balki rivojlanayotgan va o'tish davridagi iqtisodiyotga ega bo'lgan mamlakatlar iqtisodiyotiga ham yo'naltirish imkonini berdi. Bu erda yagona moliyaviy makonni shakllantirishda EI tajribasidan foydalanish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

- a) to'lovlarni va kapital migratsiyasini to'liq liberallashtirish;
- b) Evropa Ittifoqi mamlakatlari kompaniyalari va jismoniy shaxslari uchun hamkor mamlakatlarning bank, muddatli va boshqa moliyaviy xizmatlari bozoriga kirish imkoniyatini kengaytirish;
- v) investitsiyalash bo'yicha bank, soliq va boshqa qonunchilik xujjatlarini muvofiqlashtirish;
- d) milliy moliya-kredit institutlari faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish va investorlar manfaatlarini himoya qilish.

Ikkinchidan, bozor iqtisodiyotining an'anaviy qoidalari va tamoyillariga asoslangan xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimining zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda nomukammalligi. Shuni ta'kidlash kerakki, 2010 yilda Xitoy va AQSh o'rtasida davom etgan "valyuta urushlari" natijasida jahon hamjamiyatida proteksionistik kayfiyat sezilarli darajada oshgani holda sotish bozorlari uchun raqobat kuchaydi. Bularning barchasi AQSh dollariga muqobil jahon zahira valyutasini shakllantirishni, shuningdek, zahira resurslarining global tizimini yaratish maqsadga muvofiqligini taqozo etadi.

Uchinchidan, zamonaviy sharoitda moliya tizimining samarali rivojlanishini ta'minlash jarayonlariga samarali ta'sir ko'rsatishga muvaffaq bo'lgan global institutlarni isloh qilish zarurati. Ushbu tashkilotlarning to'plangan tajribasi, qonunchilik bazasi, mavjud inson va moliyaviy resurslar hamda boshqalarni hisobga olgan holda, ularning yuqori salohiyatga ega ekanligini alohida qayd etish lozim. Biroq, bunday islohot xalqaro munosabatlar tizimidagi kuchlar muvozanatining o'zgarishini hisobga olishi kerak.




Mavjud xalqaro tashkilotlarning aksariyati Ikkinchi jahon urushidan keyin tuzilgan. Ularga o'sha davrda xalqaro munosabatlar tizimiga ta'sir darajasi yuqori bo'lgan davlatlar tomonidan asos solingan va ularning asosiy vazifasi ham aynan shu davlatlar manfaatlariga yo'naltirilgan edi. Ayrim ekspertlarning fikricha, bugungi kunda ushbu tashkilotlar faoliyati ob'ektiv ravishda yangi chaqiriq va tahdidlarni bartaraf etishga qaratilmagan, ularni boshqarish tuzilmasi esa xalqaro munosabatlarning yangi ko'p qutbli formatiga mos kelmaydi [6].

Dunyoda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalalarining dolzarbligini hisobga olib, yirik xalqaro institutlar faoliyatini barqarorlashtirish tendensiyasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. A'zo davlatlar ehtiyojlari o'sishini hisobga olgan holda XVF resurslarining etarli hajmini shakllantirib borish ta'minlash vazifasi global inqiroz boshlanganidan hozirgi kungacha dolzarbligicha qolmoqda [1; 9].

Shu nuqtai nazardan, kengaytirilgan yangi qarz shartnomalari orqali olinishi mumkin bo'lgan resurslarni ko'paytirish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, bugungi kunda XVF moliyalashtirish mexanizmining alohida vositalari global moliya tizimining doimiy o'zgarib turadigan operasion muhitining zamonaviy talablariga javob berish uchun uning faoliyatini isloh qilish yo'nalishlarining muhim tarkibiy qismidir. Ular orasida jadal moliyalashtirish vositalarini, kengaytirilgan kreditlash mexanizmining tarkibiy qismlarini, kapital oqimlarini liberallashtirish va uning chiqib ketishini boshqarishni alohida ta'kidlash lozim.

G20 jahon valyuta tizimini isloh qilish maqsadida banklar va boshqa moliya institutlari faoliyatini tartibga solishni takomillashtirish, risklarni samarali baholash va prognoz qilish yo'llarini izlash hamda iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashga qaror qildi. Shu maqsadda XVF bilan o'zaro hamkorlik asosida makroiqtisodiy va moliyaviy risklardan erta ogohlantirishni ta'minlaydigan Moliyaviy barqarorlik kengashi tuzildi. XVF mamlakatlarning iqtisodiy va moliyaviy sektorlarini monitoring qilish, to'lov balansi va valyuta kurslarini tartibga solish, qarz majburiyatlarini to'lash va boshqalar uchun eng muhtojlarga yordam ko'rsatadigan asosiy institut sifatida belgilangan.

Jahon banki tizimi ham islohotni talab qiladi. Ta'kidlash joizki, faoliyatning ayrim jihatlarini o'zgartirish zarurligiga qaramay, uning etakchi tarkibiy qismlari - XTTB va XRA moliyaviy yordamga muhtoj hududlarni kreditlash bo'yicha o'z majburiyatlarini bajaradi. Bundan tashqari, aynan jahon moliya tizimi rivojlanishidagi inqiroz yillarida ushbu tashkilotlar inqiroz ta'siridan eng ko'p jabrlangan davlatlar va hududlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq bajardi (3-rasm).



3- rasm. 2024 yilda dunyo mintaqalari bo'yicha XTTB va XRA tomonidan kreditlash hajmlari (foizda)¹.

Ushbu rasm ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, 2024 yilda XTTB va XRA tomonidan ajratilgan kreditlar bo'yicha yuqori ulush Afrika (38 mlrd. AQSh dollari), Evropa va Markaziy Osiyo (24,7 mlrd. AQSh dollari), Lotin Amerikasi va Karib dengizi (19,4 mlrd. AQSh dollari) kabi mintaqalarga to'g'ri kelgan. Bu holat mazkur mintaqalarda joylashgan davlatlarga ulardagi iqtisodiy rivojlanish dasturlarini, ijtimoiy sohalarni, sanoat tarmoqlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga ajratilgan moliyaviy resurslar hajmining yuqoriligi bilan izohlanadi.

¹ <https://www.worldbank.org>



To'rtinchidan, moliya institutlarini isloh qilish zarurati. Bugungi kunda Evropa Ittifoqi iqtisodiy integratsiyani mustahkamlash niyatlarini namoyish etmoqda. Bu borada Evropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlarning korporativ soliqlarini uyg'unlashtirish, yagona pensiya yoshini joriy etish, ish haqini indeksasiya qilish mexanizmini bekor qilish va Evropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlarning belgilangan byudjet ko'rsatkichlarini bajara olmaganligi uchun javobgarlikni oshirish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratildi. Bunga misol qilib, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan Evropa Ittifoqi institutlarini, xususan, tizimli risklarni tahlil qilish bo'yicha Evropa kengashi va moliyaviy nazoratchilarning Evropa tizimini kiritish mumkin.

Beshinchidan, moliyaviy-iqtisodiy inqirozdan chiqishda yuqori samaradorlikni namoyish etgan norasmiy davlatlararo birlashmalarning, xususan, G20 rolini kuchaytirish. Bugungi kunda global boshqaruvning eng dolzarb tendensiyalari aynan shunday tashkilotlar formatida amalga oshirilmoqda. Ular orasida rivojlanayotgan, shuningdek, nodavlat sub'ektlarning (nodavlat notijorat tashkilotlari, yirik biznes va boshqalar) xalqaro munosabatlar tizimidagi roli va ahamiyati ortib borayotganini alohida ta'kidlash kerak [8].

Norasmiy birlashma hisoblangan BRIKSning faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Unga Braziliya Federativ Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va Janubiy Afrika Respublikasi a'zo bo'lib, jahon savdosining 25% ulushiga to'g'ri keladi.

BRIKS mamlakatlari orasida eng katta tashvish hozirgi global iqtisodiy vaziyat: iqtisodiy o'sishning past sur'atlari, evrozonadagi qarz inqirozi, bu esa tashqi savdoga yo'naltirilgan BRIKS mamlakatlari iqtisodiyotiga ta'sir qilmoqda. Rivojlangan mamlakatlar markaziy banklarining milliy iqtisodiyotlarni barqarorlashtirish manfaati yo'lidagi faol harakatlari natijasida ortiqcha likvidlik rivojlanayotgan mamlakatlarga oqib keladi, bu esa kapital oqimi va tovar narxlarining o'zgaruvchanligini oshiradi. Shunday qilib, darhol hal qilishni talab qiladigan muammo bozor ishonchini tiklash va global iqtisodiy o'sishni ta'minlashdir.

Oltinchidan, real sektorni modernizatsiya qilish asosida barqaror muvozanatli iqtisodiy o'sishni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir. Bu moliya tizimidan mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish vositasi sifatida foydalanish vazifalarini belgilaydi. Bu muammoni hal etish davlat moliya siyosatining maqsad va vazifalarini moliya tizimi chegarasida kengaytiradi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, aynan moliya tizimining iqtisodiyotning real sektoriga nisbatan tezroq rivojlanish sur'atlari iqtisodiyotning barqaror o'sishga erishish qobiliyatini ta'minlaydi. Shu bilan birga, moliya tizimining rivojlanish sur'atlarini haddan tashqari tezlashtirish ham, uning rivojlanish yo'lidagi sun'iy cheklashlar ham tizimli risklar uchun sharoit yaratadi hamda iqtisodiyotning moliya va real sektorlari rivojlanish sur'atlarini muvofiqlashtirish ustidan nazoratni talab qiladi[2].

Ettinchidan, tizimli risklarni oldini olish, mikro va makro darajada muvozanatsizliklarni bartaraf etish orqali uzoq muddatli istiqbolda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan makroprudensial yondashuvdan foydalanish. Uning asosiy afzalliklari orasida quyidagilarni ta'kidlash kerak:

a) moliya tizimining davriy rivojlanishini monitoring qilish, sikl davomida risklarni monitoring qilish, tartibga solish choralarining samaradorligini baholash va shu asosda ularni takomillashtirish orqali erishiladigan siyosatning egiluvchanligi va moslashuvchanligi;

b) tegishli davlat boshqaruv organini shakllantirish orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va tizimli risklarni nazorat qilish uchun qarorlar qabul qilish jarayonini markazlashtirish;

v) iqtisodiy agentlarning rivojlanish va foyda olish darajasiga salbiy ta'sir qilmagan holda risklarni minimallashtirish bo'yicha choralarni qo'llash orqali risklilik va rentabellik o'rtasidagi muvozanatni saqlash.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Global iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichining o'ziga xos xususiyati shundaki, mamlakatlar o'z iqtisodiy siyosatini, eng avvalo, ichki rivojlanish masalalarini hal etishga yo'naltirmoqda. Rivojlangan mamlakatlar shu tariqa davom etayotgan qarz inqirozi va byudjet taqchilligini engib o'tishga harakat qilmoqda, inqirozdan ma'lum raqobat ustunliklariga ega bo'lgan va yangi etakchiga aylangan davlatlar ham mintaqaviy, ham global miqyosda o'z kuch va ta'sirini oshirishga intilmoqda. Bu holat globallashtirish jarayonlarini ma'lum bir tarzda o'zgartiradi. Shu bilan birga, bugungi kundagi global muammolarni, jumladan, iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun mavjud vositalar etarli bo'lmasdan, mavjud xalqaro institutlar faoliyatining samarasizligi namoyon bo'lmoqda. Ushbu muammoni hal qilishning asosiy yo'nalishi jahon hamjamiyatiga kiruvchi mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish modellariga ularni barqaror rivojlanishning o'zgaruvchan sharoitlariga moslashtirish uchun o'zgartirishlar kiritishdan iborat.

Moliyaviy texnologiyalar va raqamli pullardan foydalanishning kengayib borishi sharoitida jahon valyuta tizimini isloh qilishda banklar va boshqa moliya institutlari faoliyatini tartibga solishni takomillashtirish, moliyaviy risklarni samarali boshqarish va prognoz qilish yo'llarini izlash hamda xalqaro kapital migratsiyasi bilan bog'liq iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish lozim. Bu o'z navbatida mamlakatlar moliya bozori kon'yunkturasidagi



kutilmagan tebranishlarni oldini olish, valyuta kurslari munozaratini ta'minlash, moliyaviy xizmatlar bozorida barqarorlikka erishishda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, hozirda jahon iqtisodiyoti global moliyaviy tizimga, moliyaviy aloqalarning xilma-xilligiga va moliyaviy oqimlarning yo'nalishiga, shu jumladan ko'plab moliyaviy operatsiyalarga asoslanadi. Shu boisdan, globallashuv sharoitida alohida davlatlar iqtisodiyotining rivojlanishi, mintaqaviy iqtisodiyotlarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi va integrasion aloqalarning mustahkamlanishi uchun barqaror global moliya tizimi zarurdir.

foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Антропов В.В. Трансформация мировой валютно-финансовой системы в условиях турбулентности мировой политики и экономики // Экономика. Налоги. Право. 2021. Т. 14, № 5. С. 6-19.
2. Воронцова Г.В., Карлов Д.И. Перспективы развития мировой финансовой системы в современных условиях // Фундаментальные исследования. – 2020. – № 5. – С. 45-53.
3. Глобальные финансы: будущее, вызовы роста / Я.М. Миркин при участии Т.В. Жуковой, А.В. Комовой, М.М. Кудиновой; ИМЭМО РАН. – М.: Изд-во «Лингва-Ф», 2019. – 192 с.
4. Загалова З.А. Влияние формальных глобальных макрорегуляторов на конкурентные позиции национальных экономик // Финансы, деньги, инвестиции. – 2022. – № 1. – с. 3-9.
5. Красавина Л. Н. Тенденции и перспективы реформы мировой валютной системы // Век глобализации. – 2011. – №1(7). – С. 29-43.
6. Крылова Л.В. Трансформация мировой валютно-финансовой системы в направлении полицентризма и регионализации // Экономика. Налоги. Право. 2021. Т. 14, № 5. С. 39–50.
7. Моисеев С.Р. Политика поддержания финансовой стабильности. Вопросы экономики. 2008, №11. с. 51-61.
8. Орлов Ф.П. Тенденции развития мировой валютно-финансовой системы // Теория и практика общественного развития. – 2022. – № 10 (176). – с. 91–97.
9. Лев М.Ю., Медведева М.Б., Лещенко Ю.Г. Эволюция глобального управления экономическими процессами в контексте международных организаций с позиции национальной безопасности // Экономическая безопасность. – 2022. – № 4. –с. 1583–1614.
10. Paul R. Krugman, Maurice Obstfeld, Marc Melitz. International Finance: Theory and Policy, Global Edition 11th Edition. Pearson. 2018. 468 p.
11. Эскиндаров М., Звонова Е. Мировые финансы. Учебник. – М.: КноРус, 2019. – 424 с.
12. Хелд Д. Глобальные трансформации: Политика, экономика, культура / Д. Хелд, Д. Гольдблатт, Э. Макгрю, Д. Перратон; пер. с англ. В. В. Сапова и др. Текст. М.: Праксис, 2004. - 576 с.
13. Хасбулатов Р.И. Международные финансы: учебник для магистров / Р.И. Хасбулатов. – Москва: Издательство Юрайт, 2014. – 567 с.
14. <https://www.imf.org>
15. <https://www.worldbank.org>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>